

_____ da ro'yxatdan o'tkazilgan
birja nomi, ro'yxatga oluvchining imzosi va birja muhri

Tranzit bitimlari uchun tovarni olish-sotish namunaviy shartnomasi

KONTRAKT № _____
Identifikatsiya raqami: 000000000000000000000000

Toshkent shahri
« ____ » _____

201_yil

Tomonlar:

Sotuvchi: __-son BI, Mijoz-Sotuvchi (matnda keyingi o'rinlarda «Sotuvchi» deb yuritiladi)dan olingan 201_yil « ____ » _____ dagi __-son topshiriq shartnomasi asosida ish ko'ruvchi broker _____ siyomosida, bir tomondan va

Xaridor: __-son BI, Mijoz-Xaridor (matnda keyingi o'rinlarda «Xaridor» deb yuritiladi)dan olingan 201_yil « ____ » _____ dagi __-son topshiriq shartnomasi asosida ish ko'ruvchi broker _____ siyomosida, ikkinchi tomondan, ushbu kontraktni quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Kontraktning predmeti, narxi va umumiy summasi

1.1. SOTUVCHI quyidagi tovarni sotish majburiyatini oladi, XARIDOR esa uni sotib olish majburiyatini oladi:

№ t/b	TIF TN kodi	Tovar nomi	O'lchov birl.	Miqdori	Birl. uchun narxi (so'm)	Summa (so'm)

1.2. Ushbu kontrakt bo'yicha bitimning umumiy qiymati QQSni hisobga qo'shganda _____ so'mni tashkil etadi.

1.3. AQSh dollaridagi ekvivalenti O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kontrakt tuzilgan kunda belgilangan kursi bo'yicha _____ ni tashkil etadi (tovar eksport yoki import qilingan holda).

1.4. Tovar uchun shartnoma narxi birja savdolarida belgilangan («Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga muvofiq).

2. To'lov tartibi

2.1. Tovar uchun hisob-kitoblar XARIDOR tomonidan kontrakt birjada ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan e'tiboran 5 (besh) bank kuni davomida:

a) 100% miqdorida oldindan hal to'lash;

b) tovarning jo'natishga tayyorlangan turkumi uchun 100% miqdorida oldindan haq to'lash;

v) kamida 15% miqdorida oldindan haq to'lash (forvard) yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.2. To'lovlarni amalga oshirish uchun asos Birjada tuzilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan kontrakt hisoblanadi.

2.3. Birja foydasiga vositachilik yig'imini _____ (kim to'lashi ko'rsatiladi) Birjada ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 5 bank kuni davomida hisobvaraqlarga muvofiq to'laydi.

Sotuvchining mijozi uchun ____% - _____ so'm;

Xaridorning mijozi uchun ____% - _____ so'm.

2.4. Brokerlik haqini _____ (kim to'lashi ko'rsatiladi) 5 bank kuni davomida hisobvaraqlar fakturalarga muvofiq to'laydi.

3. Yetkazib berish shartlari va muddatlari:

- 3.1. Yetkazib berish bazisi - _____ (INKOTERMS-2010 ga muvofiq), _____
(etkazib berish manzili)
- 3.2. Yetkazib berish muddati – oldindan haq to‘langandan keyin ___ kun.
- 3.3. SOTUVCHI tovarni muddatidan ilgari yetkazib berish huquqiga ega.
- 3.4. Tovar faqat oldindan amalga oshirilgan to‘lov summasiga jo‘natiladi.

4. Mahsulot sifati:

- 4.1. Tovar sifati jo‘natish hujjatlariga ilova qilingan sertifikatda ko‘rsatilgan sifat bilan mos kelishi lozim.
- 4.2. Tovarni sifat va miqdor bo‘yicha qabul qilish-topshirish XARIDOR yoki uning vakili tomonidan SOTUVCHIning omborida amalga oshiriladi. Mahsulot qabul qilib olinganidan keyin sifat va miqdor bo‘yicha e‘tirozlar SOTUVCHI tomonidan qabul qilinmaydi.

5. Fors-major holatlar:

- 5.1. Tomonlar ushbu Kontrakt bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan, agar bunday bajarmaslik yengilmas kuch holatlari, xususan: yong‘in, suv toshishi, yer qimirlashi, harbiy harakatlar va shu kabilarning oqibatida yuz bergan, ushbu holatlar mazkur Kontraktning bajarishga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ozod qilinadi.
- 5.2. Bunda majburiyatlarni bajarish muddati mazkur holatlar amal qilgan davrga mutanosib bo‘lgan vaqtga kechga suriladi.

6. Tomonlarning o‘zaro javobgarligi:

- 6.1. Tovarlarini yetkazib berishni kechiktirib yuborgan, ularni to‘liq yetkazib bermagan holda SOTUVCHI XARIDORga kechiktirib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyat bajarilmagan qismining ___% miqdorida penya to‘lashi shart, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovar qiymatining ___% dan oshib ketmasligi lozim.
- 6.2. Tovar uchun haq o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun SOTUVCHI XARIDORga kechiktirib yuborish muddatining har bir kuni uchun kechiktirib yuborilgan to‘lov summasining ___% miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi kechiktirib yuborilgan to‘lov summasining ___% dan oshib ketmasligi lozim.
- 6.3. Neustoyka (jarima, penya) to‘lanishidan qat‘i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan tomon boshqa tomonga buning natijasida yetkazilgan zararni qoplaydi va bu majburiyatlarni buzgan tomonni asosiy qarz summasini to‘lashdan ozod qilmaydi.
- 6.4. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarni yetkazib berganlik uchun javobgarlik, agar yetkazib berilgan tovar sifati, assortimenti va navi bo‘yicha standartlar, texnik shartlar, namunalar (etalonlar) O‘zR qonun hujjatlarida yoki ushbu kontraktida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, XARIDOR tovarni qabul qilish hamda uning haqini to‘lashni rad etishga haqli. Bunda SOTUVCHIdan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovar qiymatining ___% miqdorida jarima undiriladi.
- 6.5. Shartnoma majburiyatlari buzilgan boshqa hollarda tomonlar O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.
- 6.6. Mijoz-sotuvchi va Mijoz-xaridor ro‘yxatdan o‘tkazilgan kontraktning o‘layotganda unga kontraktning barcha bandlarini bajarish uchun javobgarlik yuklanadi, aybdor tomon O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi. Kontrakt bo‘yicha uning haq to‘lash va tovarni yetkazib berish qismida keyingi barcha harakatlar uchun Birja va Brokerlar javob bermaydi.
- 6.7. Brokerlarga taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi va haqiqiyligini uchun javobgarlik to‘liq Mijozlarga yuklanadi.

7. Boshqa shartlar:

- 7.1. Ushbu kontraktga kiritilgan har qanday o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar, agar ular yozma tarzda amalga oshirilgan hamda RKTASB va bojxona organida ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, haqiqiy hisoblanadi.

8. Nizolar va kelishmovchiliklar:

8.1. Ushbu kontraktidan kelib chiqqan barcha nizolar va kelishmovchiliklar yoki talablar tinch yo‘l bilan hal etilishi lozim yoki nizo Birjaning Arbitraj komissiyasi tomonidan, Javobgar rozi bo‘lmagan holda u joylashgan yerdagi Xo‘jalik sudida hal etilishi mumkin.

8.2. Tomonlarda 5.1-bandda ko‘rsatilgan fors-major holatlar yuz bergan holda, tomon shu munosabat bilan tomonlarning qo‘shimcha bitimini tuzish uchun bu haqda boshqa tomonga ___ kun ichida yozma tarzda xabar qilishi shart, ___ muddatdan keyin 5.1 va 5.2-bandlar o‘z kuchini yo‘qotadi va e‘tirozlar qabul qilinmaydi.

9. Kontraktning amal qilish muddati:

9.1. Ushbu kontrakt u RKTASBda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab amal qiladi.

9.2. Kontraktning amal qilish muddati – __.__.20__ y.gacha.

10. Kontrakt ishtirokchilari:

NOREZIDENT MIJOZ-SOTUVCHI:

NOREZIDENT MIJOZ-XARIDOR:

YUKNI JO‘NATUVCHI:

YUKNI OLUVCHI:

11. Ushbu kontraktni tuzgan tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

BROKER-SOTUVCHI:

BROKER-XARIDOR:

Izoh: Tranzit bitimi bo‘yicha namunaviy kontrakt tuzilayotgan kontraktga qo‘yiladigan asosiy talablarni aks ettiradigan bo‘limlar va bandlardan iborat. Kontrakt bandlarining aniq mazmuni tomonlar o‘rtasida kelishiladi. Zarur holda kontraktga qo‘shimcha bandlar va bo‘limlar kiritilishi mumkin.

